

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“KELISHILDI”

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar

Vazirligi _____

2023-yil

“TASDIQLAYMAN”

Urganch davlat universiteti rektori

_____ B. Abdullayev

2023-yil



IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI

**60211511–Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (rubob prima, qashqar va
afg‘on rubobi)**

ta’lim yo‘nalishi uchun

Toshkent – 2023-yil

Dastur Urganch davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan. 2023-yil 19-apreldagi 4 -sonli majlis bayoni.

Tuzuvchilar: UrDU "Musiqiy ta'lim" kafedrasini mudiri,
s.f.d. (PhD) B.M.Raximov

UrDU "Musiqiy ta'lim" kafedrasini katta
o'qituvchisi, s.f.d. (PhD) R.K.Boltayev

Taqrizchilar: Urganch ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
direktori A.To'rayev

Urganch ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
o'qituvchisi I.B.Sattarov

Kirish

60211511 – Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi) ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha 1-fan kasbiy (ijodiy) ixtisoslikdan imtihon dasturi, 2-fan Musiqa adabiyoti va nazariyasi fanidan abituriენტlarning amaliy-nazariy ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun mo‘ljallangan. Ushbu ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha hujjat topshirgan abituriენტlar musiqiy asarlarni ijro etish borasida ish bajaradilar.

Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

1-fan “XALQ CHOLG‘ULARI IJROCHILIGI”

Fanning maqsadi va vazifalari

60211511– Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi) ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihon dasturi abituriენტlarning amaliy ijrochilik ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Abituriენტlarning umumiy tayyorgarlik darajasi, qobiliyati, iqtidori, bilimi, dunyoqarashi va aql zakovati hisobga olingan tarzda me‘yoriy dasturni o‘zlashtirish ustida ish olib boriladi.

“Xalq cholg‘ularida ijrochilik” fanini o‘zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar – abituriენტlar turli yo‘nalishlarda bilimlarga ega bo‘lganliklarini o‘zlarining ijro mahoratini namoyish etishlaridan iboratdir. Alohida e‘tibor professional darajali ijroni mukammallashtirishga, uni yuqori badiiy saviyada ko‘rsatib berishga qaratilishi kerak. Ixtisoslik fani yuzasidan abituriენტ davr talabiga binoan dunyoqarashi keng bo‘lgan, ya‘ni insoniyat madaniyati adabiyoti, rivojlanish pog‘onalari xususan, adabiyot va san‘at sohasida teran fikr yuritish bilan birga, yangi paydo bo‘lgan kompyuterlar tizimidagi jahon musiqiy dasturlari yuzasidan ham tushuncha, tasavvur, bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi shart.

Abituriენტ bilimiga qo‘yiladigan talablar

60211511– Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi) ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qishga kirayotgan abituriენტlarni

saralash maqsadida sinfda kirish talablariga mos dasturlarni ijro etib berishi ko'zda tutilgan.

O'qishga kiruvchi 20 daqiqagacha bo'lgan vaqt mobaynida ijro dasturi (yirik shakl, polifonik asar yoki o'zbek xalq musiqasidan namuna, O'zbekiston kompozitorlarining asari)ni ijro etib berishi, talab etiladi.

Cholg'uda ijro dasturi

60211511– Cholg'u ijrochiligi: xalq cholg'ulari (pubob prima, qashqar va afg'on rubobi) ta'lim yo'nalishlariga ariza topshirgan barcha abituriyentlar belgilangan ro'yxat asosida, yakka tarzda, tayyorlangan dasturni yoddan ijro etishadi.

Ushbu imtihonda abituriyentdan musiqa asarining mazmuni, shakli, xarakteri va ijroviy murakkabligi bo'yicha turlicha bo'lgan uchta musiqa asarini ijro etishi talab etiladi.

Ijodiy imtihon abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

1. cholg'uda ijro dasturi

<u>No</u>	Ijro talablari	To'liq javob uchun ball
1. Yirik shakldagi asar		jami 33 ball
1.1.	Asar nota matnining to'g'riligi	0 dan - 5 gacha
1.2.	Tovush sifati va uni boshqarish	0 dan - 5 gacha
1.3.	Applikaturaning qo'llanishi	0 dan - 3 gacha
1.4.	Sahna madaniyati	0 dan - 2 gacha
1.5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	0 dan - 5 gacha
1.6.	Musiqiy ifoda vositalarining to'g'ri qo'llanishi	0 dan - 5 gacha
1.7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	0 dan - 5 gacha
1.8.	Asar xususiyatini ochib berilishi	0 dan - 3 gacha

2. Polifoniya asar yoki o‘zbek xalq kuylari		jami 30 ball
2.1.	Asar nota matnining to‘g‘riligi	0 dan - 5 gacha
2.2.	Tovush sifati va uni boshqarish	0 dan - 5 gacha
2.3.	Applikaturaning qo‘llanishi	0 dan - 3 gacha
2.4.	Sahna madaniyati	0 dan - 2 gacha
2.5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	0 dan - 5 gacha
2.6.	Musiqiy ifoda vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi	0 dan - 5 gacha
2.7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	0 dan - 5 gacha
3. O‘zbek kompozitorlarining asarlari		jami 30 ball
3.1.	Asar nota matnining to‘g‘riligi	0 dan - 5 gacha
3.2.	Tovush sifati va uni boshqarish	0 dan - 5 gacha
3.3.	Applikaturaning qo‘llanishi	0 dan - 3 gacha
3.4.	Sahna madaniyati	0 dan - 2 gacha
3.5.	Artikulyatsiya talablarining bajarilishi	0 dan - 5 gacha
3.6.	Musiqiy ifoda vositalarining to‘g‘ri qo‘llanishi	0 dan - 5 gacha
3.7.	Shtrix va dinamik belgilarning ishlatilishi	0 dan - 5 gacha
	Jami	93

Ijro dasturi bo‘yicha to‘plash mumkin bo‘lgan maksimal ball –93,0 ball

Izoh: OTM kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg‘ular bilan ta‘milash majburiyatini olmaydi. Abiturientlar ijro etadigan musiqa cholg‘usini o‘zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar.

2-fan

MUSIQA ADABIYOTI VA NAZARIYASI

“Musiqqa adabiyoti va nazariyasi” fanidan sinovlar 2 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent “Musiqqa adabiyoti” fani bo‘yicha og‘zaki savollarga javob berishi lozim.

2-bosqichda abituriyent “Musiqqa nazariyasi” fani bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim.

1-bosqich “Musiqqa adabiyoti” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Musiqqa adabiyoti” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat.

Ma‘lumki, musiqiy asarlarni ijro etilishida ularning yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakli tamoillari yuzasidan bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etiladi.

Shunga ko‘ra abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- musiqiy asarlarni yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakl tamoillari bilish;
- mumtoz musiqaning yetuk namunalari xususida birlamchi bilimga ega bo‘lish.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Musiqqa adabiyoti” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lganligini og‘zaki yoki yozma holda namoyish etishi, o‘z javobini musiqiy namunalarni cholg‘u asbobida chalib ko‘rsatish yoki kuylab berish orqali tasdiqlashi talab etiladi. Sinov jarayonida abituriyentning-eruditsiya, madaniy hodisalarni anglash, musiqqa san‘atining tarixiy jarayonlardagi ahamiyatini tushunish kabi xususiyatlari yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

“Musika adabiyoti” fanidan ogʻzaki topshiriqlar:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yoʻnalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);

b) taʼlimning umumiy kursi darajasida musika adabiyotidan bilimlarni;

v) janr va shakl nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va boshqa asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni oʻz ichiga oladi;

Shuningdek, “Musika adabiyoti”da abituriyentning musika sanʼati va boshqa sanʼat turlaridan, oʻzbek va chet el musiqasida maʼlum va mashhur asarlar, zamonaviy anʼanalar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

1-bosqich boʻyicha baholash

<u>№</u>	Savollar mazmuni	Toʻliq javob uchun ball
1. Abituriyent tomonidan cholgʻu asbobida ijro etilgan asar toʻgʻrisidagi savollarga javob berish jami 10 ball		
1.1.	Asarga oid savollarga toʻliq javob uchun	0-5 ball
1.2	Asarga oid savollarga qisman javob bersa	0-3 ball
1.3	Asarning janr va shakl <u>tahlili</u>	0-2 ball
1.4	Savollarga javob bermasa	0-ball
2. Chet el musika adabiyoti boʻyicha savollariga javobi uchun jami 10 ball		
2.1	Savollarga toʻliq javob uchun	0-5 ball
2.2	Chet el kompozitorlari haqida umumiy tushunchaga ega boʻlsa	0-3 ball
2.3	Savollarga qisman javob bersa	0-2 ball
2.4	Savollarga javob bermasa	0-ball
3. Abituriyentni oʻzbek musika adabiyoti boʻyicha savollariga javobi uchun jami 10 ball		
3.1	Savollarga toʻliq javob uchun	0-5 ball

3.2	O`zbek musiqasi haqida umumiy tushunchaga ega bo`lsa	0-3 ball
3.3	Savollarga qisman javob bersa	0-2 ball
3.4	Savollarga javob bermasa	0-ball

1-bosqich bo'yicha baholash uchun qo'yiladigan maksimal ball – 30, 0 ball

2-bosqich. “Musika nazariyasi” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Musika nazariyasi” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko'nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

Abituriyent “Musika nazariyasi” fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda og'zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida qo'yiladi.

2-bosqich bo'yicha baholash

T/r	Musika nazariyasi (solfedjio) vazifalar turlari	ballar taqsimoti
1.	Major, minor tonalliklarini bilishi	0-5
2	Intervallarlar haqida umumiy tushuncha uchun	0-5
3	Uchtovushliklar haqidagi umumiy tushuncha uchun	0-5
4	Septakkordlar haqidagi umumiy tushuncha uchun	0-5
5	Takt hissalarini qo'1 harakatini ko'rsatib kuy misolini notaga qarab kuylash	0-5
3.	Tinglab aniqlash	0-5
4.	Lad haqida tushuncha uchun	0-3
5.	Umuman savollarga javob bermasa	0
	Jami	33

Musika adabiyoti va nazariyasi fani bo'yicha jami qo'yiladigan maksimal ball – 63,0 ball.

Mazkur ta'lim yo'nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo'yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Ijodiy imtihonni o‘tkazish tartibi

60211511– Cholg‘u ijrochiligi: xalq cholg‘ulari (pubob prima, qashqar va afg‘on rubobi) ta‘lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Urganch davlat universiteti binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o‘tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo‘yicha imtihonni qabul qilib oladi.

Appelyasiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha universitet qabul komissiyasining apellyasiyalar bilan ishlash hay‘atiga natijalar e‘lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat abituriyent o‘zi to‘plagan ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.